

O‘ZBEK TILI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TERMINLARIDA SINONIMIYA MASALALARI

Xidirov Otabek Jo‘raboyevich,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18340743>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tili axborot texnologiyalari terminologiyasida sinonimiya hodisasi lingvistik, terminologik va normativ yondashuvlar asosida keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqotda sinonim terminlarning shakllanish manbalari, ularning leksik-semantik, funksional va uslubiy xususiyatlari yoritilib, umumtil sinonimlari bilan terminologik sinonimlar o‘rtasidagi farqlar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: sinonimiya, axborot texnologiyalari terminlari, terminologik sinonimlar, umumtil sinonimlari, leksik-semantik munosabatlar, normativlik, standartlashtirish.

Аннотация. В статье всесторонне рассматривается явление синонимии в терминологии информационных технологий узбекского языка с лингвистической, терминологической и нормативной точек зрения. Анализируются источники формирования синонимических терминов, их лексико-семантические, функциональные и стилистические особенности, а также выявляются различия между общеязыковыми и терминологическими синонимами.

Ключевые слова: синонимия, терминология информационных технологий, терминологические синонимы, общеязыковые синонимы, лексико-семантические отношения, нормативность, стандартизация.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the phenomenon of synonymy in Uzbek information technology terminology based on linguistic, terminological, and normative approaches. The study examines the sources of formation of synonymous terms, their lexical-semantic, functional, and stylistic features, and identifies the differences between general language synonyms and terminological synonyms.

Keywords: synonymy, information technology terminology, terminological synonyms, general language synonyms, lexical-semantic relations, normativity, standardization.

Kirish. Terminlarning leksik-semantik masalalari bugungi kunda o‘z mohiyati jihatdan zamonaviy yondashuvni talab qilayotgan paradigmadir. Shu kunga qadar terminlardagi sinonimlik hodisasi xususida bir qancha ilmiy-nazariy qarashlar, fikr-mulohazalar bildirilgan bo‘lsa-da, jamiyatning rivoj, tilning takomillashuvi bilan bog‘liq holda rivojlanayotganligi sababli sinonim terminologik birliklar tadqiqiga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Negaki, terminlarni tushunchani aks ettirish bilan birga voqelantiruvchi vosita hamdir.

Tilshunoslikda sinonimiya hodisasi o‘zining tarixiy ildiziga ega. Leksik-semantik hodisalar orasida juda keng tahlil qilinadigan hodisadir. Sinonimiya to‘g‘risida tilshunoslikda turlicha qarashlarni uchratamiz. Sinonimlarni o‘rganish dastavval leksik sathda amalga oshirilgan. Sh.Rahmatullayevning ta’kidlashicha, sinonimlar “odatda, bir xil ma’noli so‘zlar”, “bir-biriga yaqin ma’noli so‘zlar”, “yaqin yoki bir ma’noli so‘zlar” sifatida ta’riflaydi [1.55].

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligida ma’nodoshlik va sinonim birliklar to‘g‘risida bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirildi. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati N.Mahmudov tomonidan ishlab chiqildi. Ushbu sinonimlar lug‘atida 1500 dan ortiq sinonimik qatorni o‘rganish mumkin. Tilshunoslikda sinonimiya hodisasining keng qamrovli ta’rifi atoqli tilshunos A.Hojiyevga tegishli: “Sinonimlar ma’nosining bir xilligi ularning o‘zaro farqli xususiatlariga ega bo‘lishini inkor etmaydi. Aksincha, tilda bir ma’noni ifodalash uchun bir necha so‘zning mavjudligi sinonimlarning xususiatlariga egaligini ko‘rsatadi. Sinonim qatorni tashkil etuvchi so‘zlar qaysidir jihatlari bilan bir-birlaridan farqlangani uchun tilda alohida leksik birlik sifatida yashash imkoniyatiga ega bo‘ladi” [2].

Sinonimlar bo‘yicha ishlagan B.Mengliyev: “Sinonim leksema orasidagi munosabat *sinonimiya* yoki *sinonimik munosabat*” – deya ta’riflagan. Bundan tashqari ular sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo‘lib, ifoda semasi farqlanishini misollar bilan keltirib o‘tgan [3].

Tilshunosligimizda sinonimlarga berilgan ta’riflarni tahlil qilar ekanmiz, ularni belgilashda avvalo leksemalarning ma’no jihatdan o‘xshashligiga, so‘ng umumiy ma’noga ega bo‘lishiga, keyinchalik esa semantik yaqinlik darajasiga asoslanganligini ko‘rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot o‘zbek tili axborot texnologiyalari terminologiyasida sinonimiya hodisasini aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda tavsifiy-tahliliy, leksik-semantik va terminologik yondashuvlar asosiy metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Sinonim terminlarning shakllanish manbalari va qo‘llanish xususiyatlarini aniqlashda qiyosiy-tipologik metod hamda kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid izohli va terminologik lug‘atlar materiallari asosida leksikografik tahlil, shuningdek, terminlarning normativlik darajasini belgilash uchun normativ-huquqiy hujjatlar va standartlar tahlili amalga oshirildi.

Tahlillar va natijalar. Tilda sinonimlarning ko‘p uchrashi so‘z boyligi va leksik imkoniyatlarning kengligini ko‘rsatadi. Axborot texnologiyalari sohasida sinonim so‘zlardan oqilona foydalanish texnik matnlarning aniq, tushunarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Biroq bir-biriga mutlaqo o‘xshash, semantik farqi deyarli yo‘q bo‘lgan terminlarning yonma-yon ishlatilishi tilni boyitmaydi, aksincha, chalkashlikka sabab bo‘ladi.

Masalan, o‘zbek tilida keng tarqalgan *kompyuter – hisoblash mashinasi, brauzer – ko‘ruv dasturi, skaner – nusxa ko‘chiruvchi qurilma, printer – chiqaruvchi moslama, fayl – hujjat, log in – kirish, log out – chiqish* kabi sinonim juftliklar mavjud. Shuningdek, ingliz tilidagi *cloud computing – bulutli hisoblash, update – yangilash, backup – zaxiraga olish* kabi terminlar ba’zan bir-birining o‘rnida ishlatiladi.

Amaliyot shuni, ko'rsatadiki, bunday sinonim terminlardan bittasi asosiy variant sifatida me'yorga tushadi va ishlatiladi, boshqasi esa asta-sekinlik bilan iste'moldan chiqib ketadi. Til, ayniqsa, terminologiya, bunday hollarda ma'no jihatidan aniqlik, ixchamlik va izchillikni ta'minlash uchun bir sinonimni tanlab, boshqasidan voz kechishga intiladi.

Har bir tilning sinonimik boyligi bir nechta asosiy manbalar orqali shakllanadi. Ular orasida, birinchidan, boshqa tillardan kirib kelgan leksik birliklar, ikkinchidan, shu tilning ichki leksik, morfologik va semantic imkoniyatlari asosida yasalgan yangi so'zlar muhim o'rin egallaydi. Ushbu holat O'zbek tilidagi axborot texnologiyalari terminologiyasi misolida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Axborot texnologiyalarining aksariyati o'zbek tiliga ingliz tilidan kirib kelgan va ushbu tilda qanday qo'llansa, o'zbek tilidan shunday ifodalanish holatlari uchraydi. *Chat – suhbat, onlayn yozishma, cloud – bulutli saqlovchi, texnologik bulut, error – xatolik, nosozlik, firewall – himoya devoir, axborot filtri.*

Ushbu sinonimlar ayrim hollarda to'liq almashtiriluvchi birliklar bo'lsa, boshqa hollarda ular uslubiy, funksional yoki mazmun jihatdan farqlarga ega bo'lishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, til bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq sinonimni muomalada saqlab qololmaydi. Odatda ular orasidan eng qulay, tushunarli va keng qo'llaniladigan variant tanlab olinadi, qolganlari esa asta-sekinlik bilan passiv qatlamga o'tadi yoki umuman iste'moldan chiqadi. Bu holat atamalarning normativlashuvi va standartlashuvi bilan bevosita bog'liq.

Shunday qilib, o'zbek tili AT terminologiyasida sinonimik birliklarning boyishi ham tashqi til resurslari (ingliz, rus, arab, fors tillari), ham ichki leksik tizim (so'z yasash, tarjima, tavsiflash) asosida amalga oshmoqda. Bu esa, o'z navbatida, tilning moslashuvchanligi va zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga javob bera olish qobiliyatini ko'rsatadi.

Tilning leksik boyligi va ifoda imkoniyatlari sinonimiya hodisasi orqali kengayadi. Sinonimlar – bir xil yoki juda yaqin ma'noni anglatadigan, ammo fonetik shakli turlicha bo'lgan leksik birliklardir. Sinonimlar ikki asosiy turda namoyon bo'ladi: umumtil sinonimlar va terminologik sinonimlar, Sinonimlar o'zaro to'liqlik, kontekstual bog'liqlik, stilistik yuklama va qo'llanish sohasi bo'yicha farqlanadi. J.Lyons, M.Breal, D.A.Kruyz, V.Vinogradov kabi olimlar qatorida o'zbek Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, H.Nematov va M.Mirtojiyev kabi olimlarimiz sinonimiya nazariyasiga turli yondashuvlar bilan hissa qo'shgan. Xususan, J.Lyonsning ta'rifiga ko'ra, sinonimlar bir-birini barcha kontekstlarda amlashtirila olmasligi mumkin, shu sababli ularni to'liq va cheklangan sinonimlarga ajratish kerak [4].

Shunday ekan, umumtil sinonimlar barcha til qatlamlarida, ya'ni badiiy, og'zaki, yozma, rasmiy va norasmiy uslublarda qo'llaniladigan, nutq erkinligini ifodalovchi sinonimlardir. Ularda odatda maishiy sohada keng ishlatiladi, stilistik yoki emotsional tafovutga ega. Kontekstga qarab sinonimik funksiyani bajaradi. V.Vinogradov umumtil

sinonimlarni *stilistik jihatdan ajraluvchi leksik birliklar* deb atagan va ularning poetik nutqda estetik yukini alohida ta'kidlagan [5.45].

Terminologik sinonimlar – maxsus sohalar (fan, texnika, huquq, tibbiyot) doirasida ishlatiladigan, aniq, ilmiy yoki texnik tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklardir. Ular quyidagi xususiyatlarga ega:

- aniq, qat'iy belgilangan semantik doiraga ega;
- soha ichida ruxsat etilgan sinonimiya doirasida qo'llanadi;
- normativ hujjatlar orqali me'yorlashtiriladi;
- yuqori darajadagi aniqlikni talab etadi;
- stilistik betaraf va odatda rasmiy uslubda qo'llanadi.

Umumtil va terminologik sinonimlarning ta'rifini o'rgangan holda ular o'rtasidagi asosiy farqlarni quyidagicha ajratish mumkin:

Sinonimiya hodisasi til tizimining barcha qatlamlarida uchrashi mumkin bo'lsa-da, uning namoyon bo'lish shakllari har doim bir xil emas. Ayniqsa, umumtil leksika va maxsus terminologiya qatlamlarida sinonimlar o'rtasidagi semantik, funksional va stilistik tafovutlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Terminologik sinonimlar va umumtil sinonimlar o'rtasidagi asosiy tafovut ularning funksional maqsadi va qo'llanilish sohasi bilan belgilanadi. Terminologik sinonimlar – tushunchalarni aniqlashtirish va tasniflashga xizmat qilsa, umumtil sinonimlar – ifodaning badiiy-estetik kuchini oshirishga xizmat qiladi. Terminlar o'rtasidagi sinonimiya odatda cheklangan bo'lib, ruxsat etilgan sinonimlar faqat soha ichidagi ehtiyojga qarab shakllanadi. Aksincha, umumtil sinonimlar erkin ishlatiladi va stilistik uslubga moslab tanlanadi.

Shu bilan birga, til rivojida va sohalararo o'zaro ta'sirda bu ikki sinonimiya qatlamining chegaralari ba'zan yaqinlashadi. Ayrim umumtil birliklar asta-sekin terminologik xususiyat kasb etishi yoki terminlar umumiy nutqqa o'tib ommaviylashishi mumkin. Bu esa sinonimlar tizmi ichida dinamik semantik harakatni, o'zgaruvchanlikni ifodalaydi.

Sh.Rahmatullayev o'zining tadqiqotlarida sinonimlarni o'zbek tilida tasniflashda ularning uslubiy, semantik va funksional xususiyatlariga alohida e'tiborga bergan. Uning fikricha, terminologik sinonimlar faqat bir sohaga xos bo'lib, ularning izchil ishlatilishi til madaniyati va ilmiy muloqot samadorligi uchun muhim [6].

D.Kruyz esa sinonimlarning *kontekstda tanlanishiga* asoslangan holda, terminologik sinonimiyani faqat soha ichida mantiqiy ravishda izolab bo'ladigan birliklar bilan chegaralaydi [7].

Umumtil sinonimlar va terminologik sinonimlar bir qarashda o'xshash bo'lsa-da, ularning semantik qamrovi, uslubiy xususiyatlari va qo'llanish sohasi mutlaqo farqlidir. Umumtil sinonimlar erkin muloqot vositasi bo'lsa, terminologik sinonimlar aniq sohalardagi ixtisoslashgan atamalar sifatida qat'iy me'yorga bo'ysunadi. Shuning uchun

sinonimiya turlarini to'g'ri farqlash – til madaniyatini shakllantirish, ilmiy muloqotni normaga solish va zamonaviy atamashunoslikni rivojlantirishda muhim bosqich hisoblanadi.

Sinonimlarning tasnifini o'rganish jarayonida olim M.Abjalovning fikrlarini ham o'rganishga va tahlil qilishga harakat qildik. Xususan, sinonimiyaning ikkita asosiy turi mavjud semantik va stilistik ekanligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari u sinonimiyaning turli xususiyatlariga bo'yicha tasniflarini keltiradi. Masalan, semantik farqlanishning mavjudligi yoki yo'qligiga, ekspressiv semantikaning mavjudligi yoki yo'qligiga, uslubiy xoslanishiga, sinonim qator a'zolarining asosiga, kelib chiqishiga, leksik tizimda sinonimlarning mustahkamlanishiga, leksikografik mansubligiga, darajalanishi va bo'yoqdorlikning mavjudligi yoki mavjudmasligiga ko'ra tasniflanishi keltirib o'tgan [8.352].

Turli manbalarni tahlil qilib, bir holatga keltirgan holda sinonimiyaning ko'rinishlarini quyidagicha turlarga ajratishga qaror qildik: *leksik, derivativ, frazeologik, matniy (kontekstual), grammatik*.

Sinonimiyaning tuzilishiga ko'ra turlari quyidagicha: *affiksial, sodda, juft, takror, qo'shma, aralash, so'z birikmasi sinonimiyasi, gap sinonimiyasi*.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'atini tahlil qilinganda yuqoridagi keltirilgan ko'rinishga ko'ra sinonimiyaning barcha turlariga misollarni e'tiboringizga havola etmoqchimiz:

Leksik sinonimlar – ma'lumotlar bazasi, axborot ombori; internet sahifasi, veb-sahifa; ekran, displey; papka, jild; xotira, saqlovchi qurilma; yuklab olish, ko'chirib olish; dastur, dasturiy taminot;

Derivativ sinonimlar – xavf, xavfsiz, xavfsizlik; tezlik, tezkor, tezlashtirish; aloqa, aloqador, aloqachi; dastur, dasturlash, dasturchi; raqam, qaramli, raqamlashtirish;

Frazeologik – fayl uzatish protokoli, FTP xizmati; axborot resurslari, ma'lumotlar bazasi; foydalanuvchi interfeysi, ishchi panel; hisob qaydnomasini ochish, akkkaunt yaratish; brauzer orqali kirish, internet ko'ruvchi orqali ulanish;

Grammatik – tizim ishlayapti, tizim ishlamoqda; kirish ruxsat etilmagan, kirish mumkin emas, dastur ishga tushdi, dastur ishladi; ulanish bajarildi, ulanish amalga oshirildi.

Terminologik tizimlarda sinonimiya hodisasi ilmiy-texnik taraqqiyot jarayonda amalga oshishi muqarrar holda. Bir ilmiy tushunchaga bir necha nomning paydo bo'lishi turli lingvistik va ekstralingvistik omillarga bog'liq. Avvalo, ma'lum sohaga oid atamalar bir tizimga solinmagani, ya'ni terminologiyaning standartlashirilmaganligi sinonimlarning ko'payishiga olib keladi. Shuningdek, eskigan nomlarning yangi terminlar bilan yonmayon qo'llanilishi, adabiy til me'yorlari bilan dialectal yoki ijtimoiy lahjalar o'zaro ta'sirining natijalari ham terminologiyada sinonimik nomlanishlarni keltirib chiqaradi. Yana bir muhim omil – terminologik merosning tiklanishi, ya'ni ilgari ishlatilib

keyinchalik yangilanmagan eski atamalarni qayta qo'llash urinishlari va bir vaqtda yangi atamalar yaratilishidir. Bunday holatda bir tushunchaning eski va yangi nomlari parallel ravishda qo'llanishi mumkin. Soha taraqqiyoti jarayonida bevosita chet tilidan olingan terminlarning qo'llanishi ham sinonimik zaniirni hosil qiladi. Masalan, dastlab rus va ingliz tillaridan kirib kelgan *kompyuter* atamasiga ma'no va vazifadosh qilib, o'zbekcha *elektron hisoblash mashinasi* iborasi joriy qilingan edi – bu ikki nom bir necha muddat sinonim tarzda ishlatilgan. Shuningdek, terminlar to'liq va qisqarma shaklda qo'llanishi ham sinonimlik manbayi bo'lishi mumkin. Masalan, *sun'iy intellekt* atamasining inglizcha qisqartmasi AI (yoki ruscha ИИ) ilmiy matnlarda asl termin bilan barobar qo'llanishi uchraydi.

Axborot texnologiyalari va informatika sohalarida sinonimik atamalar ko'pincha turli manbalardan olingan yoki birinchi-yaratilgan nomlarning barobar ishlatilishi tufayli yuzaga kelgan. Quyida ushbu sohalarda uchraydigan ba'zi sinonim terminlar juftliklari keltiriladi:

Kompyuter – elektron hisoblash mashinasi. Birinchi nom ingliz tilidan o'zlashgan bo'lsa, ikkinchisi rus tilidagi ЭХМ(электронная вычислительная машина) atamasining o'zbekchasi sifatida paydo bo'lgan. Bugungi kunda *kompyuter* atamasi keng qo'llaniladi, *EHM* esa tarixiy atama sifatida deyarli iste'moldan chiqqan.

Dastur – programma. *Dastur* so'zi arabcha va forscha ildizlarga borib taqaladi, umumiy ma'noda *yo'l-yo'riq rejalar majmui* degan ma'noni anglatgan, hozirgi axborot texnologiyalari sohasida *dastur* kompyuter programmasiga nisbatan qo'llaniladi. Unga sinonim tariqasida rus tilidan kirgan *programma* atamasi ham uzoq yillar davomida ishlatilgan. Hozirda rasmiy iste'molda *dastur* termini afzal ko'riladi, *programma* atamasi esa ijtimoiy qatlam orasida keng tarqalgan.

Sun'iy intellekt – sun'iy aql. *Sun'iy intellekt* rasmiy adabiyot va ilmiy doirada keng ishlatiladi. *Sun'iy aql* birikasi esa xuddi shu tushunchaning shaklan sodda, o'zbekchalashtirilgan sinonimi sifatida omma orasida uchraydi. Masalan, ayrim ommaviy axborot vositalarida *sun'iy aql* atamasi qo'llanilib, aslida *sun'iy intellekt* tushunchasi nazarda tutiladi [9].

Loyiha – projekt. *Loyiha* arabcha *loyiha* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilida *project* ma'nosini anglatadi. *Projekt* esa to'g'ridan-to'g'ri rus tilidan olingan variant. Hozirda texnik hujjatlarda va rasmiy biznes tilida *loyiha* atamasi qo'llaniladi, *projekt* esa norasmiy nutqda asosan rus tilining ta'siri kuchli bo'lgan muhitdagina uchraydi.

Operativ xotira – operativka. Kompyuterning tezkor xotira qurilmasi uchun *operativ xotira* termini rasmiy ishlatiladi (muqobil ravishda RAM – Random Access Memory iborasi ham atamalarda qo'llaniladi). *Operativka* so'zi esa rus tilidan olingan jargon bo'lib, texnik mutaxassislar og'zaki nutqida uchrashi mumkin. Ma'nodosh bo'lsa-da, uslubiy jihatdan ular farqlanadi.

Qattiq disk – vinchester. Qattiq disk (hard disk) tushunchasi rasmiy tarzda *qattiq disk* yoki HDD atamasi bilan yuritiladi. Ammo avvalroq xususan 1990-yillar atrofida, kompyuter foydalanuvchilari orasida uning *vinchester* deb atalishi keng tarqalgan edi [10]. *Vinchester* aslida birinchi HDD qurilmaning britanacha tijorat nomi bo‘lib, sobiq ittifoq davrida jargon sifatida o‘zlashgan. Hozirgi kunda bu sinonimik nomdan deyarli boz kechilgan, *qattiq disk* yoki *hard* termini me‘yorlashgan.

Yuqoridagi misollar ko‘rsatadiki, sinonim terminlar asosan kelib chiqishi va qo‘llanish doirasi bilan bog‘liq farqlarga ega bo‘ladi. Ko‘pincha ularning biri dominant (bosh) atama sifatida ko‘proq iste‘molda bo‘ladi, ikkinchisi esa torroq doirada yoki muayyan uslubiy qatlamda qo‘llanadi. Masalan, *kompyuter* tushunchasi uchun *kompyuter* so‘zi hozirgi adabiy til norma va ilmiy uslubda dominant bo‘lsa, *EHM* atamasi eskirgan va faqat tarixiy kontekstda uchraydi; xuddi shuningdek, *dastur* so‘zi mutlaq dominanta bo‘lib, *programma* so‘zi eskirgan variant sifatida til hodisasi tarixida qolgan. Sinonimik atamalarning shakllanish sabablarini tahlil qilar ekanmiz, ulardan ba‘zilari to‘la ekvivalent (mutlaq sinonim) bo‘lib, faqat kelib chiqish manbai yoki shakliiy tuzilishi bilan farqlansa (masalan, *loyiha–proyekt, ilova–priloheniye*), ba‘zilari esa nisbatan sinonim bo‘lib, ular orasida ma‘no yoki uslub farqlari mavjud bo‘lishi mumkin (masalan, *sun‘iy intellekt–sun‘iy aql* juftligida intellekt termini ilmiyroq tusda, *aql* so‘zi esa sodda-tushunarli xalqona tusda qo‘llanadi). Shuningdek, terminlarning qisqartma va to‘liq shakllari (masalan, *OT – operatsion tizim, YEATT – yagona elektron axborot ta‘minoti tizimi* kabilar) bir konseptual birlik ifodasining ikki ko‘rinishi bo‘lib, ularni ayrim olimlar variant (dublet) terminlar deb ataydi. Bunda qisqartma variant asosan texnik matnlarda qulaylik uchun ishlatiladi, to‘liq variant esa atamaning rasmiy-nazariy shakli sifatida xizmat qiladi.

Adabiy tilda sinonimlar ko‘pincha uslubiy bo‘yog‘i bilan farqlanadi. Terminologiyada esa atamalar uslubiy bo‘yoqlardan xoli bo‘lishi talab etiladi. Shunga qaramay, bir nechta sinonim terminlar orasida uslubiy tafovutlar mavjud bo‘lishi mumkin. Ba‘zi atamalar rasmiy va ilmiy uslubga xos bo‘lsa, ularning sinonimlari norasmiy toki soha ichki jargoniga oid bo‘lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan misollar orqali bunga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, *operativ xotira* – ilmiy-texnik atama, *operativka* – ko‘cha dasturchilari tomonidan ishlatiladigan jargon, *loyiha* – rasmiy so‘z, *proyekt* – o‘zbek tilida ishlatiladigan norasmiy, aniq ko‘rsatilmagan umumxalq tilidan ishlatiladi. Demak, sinonim terminlar birikmasida ko‘pincha dominant atama hamda ekspressiv yoki cheklangan uslubga xos atama bo‘ladi. Dominant termin, odatda, uslubiy betaraf va keng qo‘llanadigan bo‘lib, barcha uslublarda ishlatilaveradi. Uning sinonimi esa ko‘proq muayyan uslub doirasida – masalan, faqat og‘zaki sohada yoki faqat tarbiyaviy-ommabop janrlarda uchrashi mumkin. Masalan, *chalao‘tkazgich* va *yarimo‘tkazgich* atamalarini solishtirsak, *yarimo‘tkazgich* ilmiy-texnik matnlarda qabul qilingan dominant atama, *chalao‘tkazgich* esa og‘zaki nutqda yoki badiiy adabiyot tarjimalarida uchraydigan, hozirgi adabiy til nuqtayi nazaridan eskirgan shakldir. Xuddi shunday *nimo‘tkazgich* so‘zi

ham bir vaqtlar qo‘llangan bo‘lsa-da, u hozir mutlaqo iste‘moldan chiqib ketgan va faqat tarixiy-lisoniy qiziqish uchun tilshunoslikda tilga olinadi. Bu misol terminologiyada sinonimlarning eskirish va yangilanish jarayonini ham ko‘rsatadi. Vaqti kelib bir sinonim zamon tiliga moslashadi, boshqasi esa chetga chiqadi yoki faqat izohli lug‘atlardagina uchraydigan birlikka aylanadi.

Sinonim terminlarning funksional tafovuti deganda ularning turli kommunikativ vazifalarda qo‘llanilishidagi farqlar tushuniladi. Bitta atama rasmiy-huquqiy hujjatlarda ishlatilishi, uning sinonimi esa ayni tushunchani ommaviy axborot vositalarida sodda tushuntirish uchun xizmat qilishi mumkin. Masalan, *axborot texnologiyalari* termini rasmiy hujjatlarda, me‘yoriy matnlara ishlatiladi, lekin ba‘zi maqolalarda yoki og‘zaki nutqda uni *IT texnologiyalar* (*inglicha qisqartma va o‘zbekcha so‘zning qo‘shilmasi*) deb kelish holatlari mavjud. Ushbu holatda *IT texnologiyalari* birikmasi norasmiy va qisqartma bilan qulay ifoda bo‘lsa-da, ilmiy uslubda takror tavsiya etilmaydi (zero, IT ning o‘zi texnologiyalar tushunchasini o‘z ichiga oladi). Shuningdek, *sun‘iy intellekt tizimlari* ilmiy atamasi ommaga tushunarli bo‘lishi uchun ba‘zan *aqlli tizimlar* deb ham ataladi – bu holatda ham sinonimlar vazifasi farq qiladi, ya‘ni biri ilmiy-texnik atama, ikkinchisi esa ommabop talqin uchun qo‘llangan. Demak, terminologik sinonimlarning uslub-funksional farqlari ularning qaysi auditoriyaga mo‘ljallanganligi va qanday kommunikativ vazifani bajarishiga qarab namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘zbek tili axborot texnologiyalari terminologiyasida sinonimiya masalasi til siyosati va ilm-fan taraqqiyoti kesishgan murakkab sohadir. Bir tomondan, sinonim atamalar til boyligini ko‘rsatuvchi hodisa bo‘lsa-da, ikkinchi tomondan ilmiy muloqot aniqligi uchun zarur bo‘lgan terminologik aniqlik tamoyiliga zid keladi. Shu bois O‘zbekistonda terminologik sinonimiyani kamaytirish va barqaror atamalar tizimini shakllantirish ustida doimiy ish olib borilmoqda. Bu yo‘lda ilmiy asoslangan, tasniflar, milliy til imkoniyatlarini hisobga olgan holda atama yaratish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va amaliyotga joriy etish kabi chora-tadbirlar muhimdir. Zamon o‘tishi bilan ortiqcha sinonimlar tabiiy ravishda me‘yordan chetlashib, eng qulay va mos atamalar ommalashadi. Terminologiyani muntazam ravishda tartibga solib borish orqali o‘zbek tilining ilmiy-texnik leksikasi yanada aniq, izchil va boy bo‘lib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahmatullayev Sh. Semik tahlil va leksik sinonimiyani ta‘riflash masalasi // O‘zbek tili va adabiyoti. 1979, 5-son, 55-bet.
2. Shoabdurahmonov Sh., Asqarov M., Hojiyev A. va bosh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili 1-qism. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980. – B.115
3. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili (kirish, fonetik sath, leksik-semantik sath) // Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018. – B. 165.
4. Lyons, J. Linguistic Semantics: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995. – P. 76

5. Виноградов В.В. Русский язык: грамматическое учение о слове. – 3-е изд., испр. – М.: Наука, 1977. – С. 45.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik, Toshkent: Universitet, 2006. – B.77
7. Cruse D.A. Lexical semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 126.
8. Abjalova M. O‘zbek tilidagi sinonimlar tasnifi. Zamonaviy ilm-fan va ta’lim istiqbollari ilmiy amaliy konferensiyasi. Toshkent, 2023. Volume 1, Issue 2. – B. 352–360.
9. <https://www.bbc.com/uzbek/articles/c4gxrkvzxxzgo/lat>.
10. https://uzpedia.uz/pedia/vinchester_1.

